

NUTQ O'STIRISH MASHG'ULOTLARINI O'TKAZISH METODIKASI*Nosirova Nodira Rafiqovna.**Farg'onan viloyati,**Qo'qon shahar, 28- DMTT metodisti*

Annotatsiya: Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning og'zaki nutqini rivojlantirish, atrofdagilar bilan nutqiy munosabatda bo'lish malakasini shakllantirishdan iborat bo'lib, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga ona tilini o'rgatish, nutqni rivojlantirish, nutqiy munosabatga, muomalaga o'rgatish ishlarini tahlil qilish, turli yosh guruhlari uchun nutq o'stirish mashg'ulotlarining interfaol ishlanmalarini ishlab chiqish.

Kalit so'zlar: Ta'lim, tarbiya, nutq, metod, mashg'ulot, munosabat, texnologiya.

Ta'lim–tarbiya tizimini takomillashtirish bevosita zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga samarali joriy etish darajasi bilan bog'liqligini inkor etib bo'lmaydi. Pedagogik texnologiyani joriy qilishni innovatsiya jarayoni deb qarash mumkin. Zamonaviy axborot texnologiyaning bolalar jamoasida muvaffaqiyatlari joriy qilinishi va yaxshi samara berishi bir qator omillarga bog'liq. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida, o'quv tizimini yangidan isloq qilish, zamonaviy texnologiyalar asosida ishlab chiqish va ularni amaliyotga keng jalb qilish, rivojlangan davlatlar o'quv sistemasidagi yangiliklar va yutuqlarni o'rghanish hamda ularni mamlakatimizda tadbiq etish bugungi kunning muhim talablaridan biri hisoblanadi. Hozirgi kunda mashg'ulot jarayonlarida yangi pedagogik texnologiyalarning "Aqliy hujum", "Klaster", "Baliq", "T", "Ruchka stol ustida", "Rotatsiya" metodlari va boshqa usullaridan keng foydalanib kelinmoqda. Bolaning ruhiy kamolotining ko'p jihatlari nutq bilan bog'liq ravishda rivojlanadi. Chunki, bola muloqotga kirishishi ya'ni tengdoshlari va kattalar bilan bo'ladigan muloqotlari jarayonida juda ko'plab ma'lumotlarga ega bo'ladi va o'zining ruhiyatini keyingi rivojlanish bosqichiga ko'tarib boradi. Shuning uchun, bola hayotining dastlabki birinchi oyidan tarbiya faqat uni parvarish qilish bilan chegaralanmasligi kerak. Bolaning ilk yosh davridan eshitish qobiliyatini tarbiyalash, shuningdek, bolaning emotsiyonal sohasi – jilmayish, kulish, va ovoz tonini uyg'otish lozim. Bularning hammasi birgalikda bolalar nutqini rivojlanirishga xizmat qiladi. Maktabgacha ta'lim mazmunini tashkil etishda bolalar nutqini rivojlaniruvchi noan'anaviy usullardan foydalanish; ularda mashg'ulotlarga qiziqishni yanada orttirish uchun har-xil integrasiyalashgan xususiyatga ega bo'lgan ko'rgazmalardan foydalanish; mashg'ulotlarni o'tish jarayonida interfaol usullrni qo'llagan holda o'tish; maktabgacha yoshdagi bolalarga mashg'ulotlarni tashkil etishda doimo bolalarning tafakkur xususiyatini (ko'rgazmali obrazli, ko'rgazmali harakatli, emotsiyonal) hisobga

olish; ta'lim jarayoni bola yoshiga mos bo'lishi yoki imkoniyatlarini hisobga olgan holda metodlarni tanlash bilan bog'liq bo'lishi; bolalarga yondashuvda logoped, defektolog, psixolog, tarbiyachi, ota – onalar o'zaro hamkorlikda ish olib borishlari maqsadga muvofiqdir. Maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalar tafakkurini rivojlantirish ularda nutq jarayonini rivojlantirishga uzviy bog'liq bo'lib, tafakkur nutqning mahsuli ekanligini hisobga olsak, bolalarda nutqni rivojlantirishda tarbiyachilar asosan quyidagilarni mashg'ulotlarda hisobga olishlari zarur:

- 1. Bolaning yosh davr xususiyatlarini;*
- 2. Bolaning individual imkoniyatlarini;*
- 3. Bolaning xarakter xususiyatlarini;*
- 4. Bolaning tarbiyasiga kuchli ta'sir etuvchi omillarni (kattalar, do'stлari, tarbiyaviy vositalar va hokazo).*

Bola tarbiyasi hech qachon o'zining dolzarbligini yo'qotmagan muammolardandir. Chunki, har tomonlama rivojlangan yosh avloddan jamiyat ham manfaatdordir. Hozirgi jamiyat taraqqiyoti davrida pedagogika fani va amaliyoti oldida ta'lim tizimi va turli ta'limiy ehtiyoj va imkoniyatga ega bolalar tarbiyasi tizimi samaradorligini oshirish yo'llarini izlash vazifasi dolzarblastashdi. Ma'lumki, nutq inson shaxsi shakllanishida uning rivojlanish darajasining asosiy shartlaridan biri, olamni anglash jarayonidagi eng asosiy ko'rsatkich bo'lib hisoblanadi. Keyingi o'n yilliklarda ta'lim tizimi tuzilmasida keskin o'zgarishlar sodir bo'ldi. Bunda ikki o'zaro bog'liq jarayon yaqqol ko'zga tashlandi: fan - texnika taraqqiyoti bilan birga, til madaniyati, nutqimiz ham o'zgardi. Hayotimizga kompyuter, mobil telefoni, televizor va boshqa maishiy texnika, internet kabi tushuncha va so'zlar kirib keldi. Kundalik muloqotimiz ham shaklan ham mazmunan o'zgardi. Bolalar hovli va bolalar maydonchalarida harakatli o'yinlar bilan kamroq shug'ullanadigan, buning o'rniغا ko'proq kompyuter oldida o'tiradigan, internet muloqotiga ko'proq vaqt ajratadigan, yuzma-yuz suhbatlashishdan ko'ra, ko'proq telefon orqali muloqot qilishni xush ko'rib, kompyuterda tovush orqali emas, balki harf terish orqali muloqot qilishni afzal ko'ra boshladilar.

Bolalarning nutq madaniyatini shakllantirish jarayonida mashg'ulotlarda interfaol usullardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi «Aqliy hujum» - muammolarni hal qilishda keng qo'llanadigan anchagina mashhur metoddir. U bolalarni o'z tasavvurlari va ijodlaridan foydalanishga undaydi va berilgan har qanday muammoga ko'p sonli yechimlar topishda yordam beradi (Bu vaziyatda men nima qilishim kerak? Bu to'siqni qanday bartaraf qilishimiz kerak?). Aqliy hujum qadriyatlarni tanlash va muqobillarini aniqlashga yordam beradi.

Aqliy hujumni o'tkazish qoidalari, foydalanish usullari quyidagilardan iborat:

- 1.O'yash jarayonida hech qanday baholashlarga yo'l qo'yilmaydi. Agar o'yash jarayonida g'oyalarni baholaydigan bo'lsak, qatnashchilar e'tiborlarini o'z fikr va

g‘oyalarini himoya qilishga qaratib, ularning yangilari va yaxshilari ustida bosh qotirmay qo‘yadilar. Baholash qoidadan istisno qilinishi kerak.

2. Hammani o‘ta xilma-xil kutilmagan g‘oyalar doirasida o‘ylashga undash kerak. Haqiqatdan ham aqliy hujumda kutilmagan g‘oyalar yuzaga kelmas ekan, ayrim qatnashchilar o‘z shaxsiy fikrlarini qayta ko‘rib chiqishlari aniq bo‘lib qoladi.

3. G‘oyalar miqdori rag‘batlantiriladi. Miqdor deyarli doimo o‘sib, sifatga aylanadi. Tezkor izchillikda katta miqdorda g‘oyalar paydo bo‘lganda, odatda baholash istisno qilinadi.

4. Har bir kishi o‘zgalar g‘oyasiga asoslanishi va ularni o‘zgartirishi mumkin. Oldin taklif etilgan g‘oyalarni biriktirish yoki o‘zgartirishga ko‘pincha sabab bo‘lganlardan ko‘ra yaxshiroq g‘oyalarni keltirib chiqaradi. Samarali «Aqliy hujum» metodidan foydalanish quyidagilarni taqozo etadi: «Aqliy hujum» metodining mohiyati ham o‘ziga xos xususiyatga ega. Bunda maqsad berilgan qisqa vaqt ichida ma’lum muammoning yechimini topishga qaratilgandir. Bu psixotexnik o‘yin mashg‘ulot jarayonida ijodiy va noandoza fikrlashni uyg‘otadi. Bitta yoki bir necha guruh tashkil etiladi va ular oldiga muammo qo‘yiladi. Har bir ilgari surilgan g‘oyani atroflicha ko‘rib, kengaytiriladi va ular orasidan eng to‘g‘ri g‘oyani muammoning yechimi sifatida qabul qilinadi. Muammoni yechish vaqtı oldindan belgilab olinadi va unga qat’iy amal qilinadi. «Aqliy hujum» o‘yini qiyin vaziyatlardan qutulish chorasi tez topishga, muammoni ko‘ra bilish chegaralarini kengaytirishga, fikrlash bir xillagini yo‘qotishga va keng doirada tafakkur yuritishga imkon beradi. Bundan tashqari jamoadagi munosabatlar o‘zgaradi, kurashish kayfiyatidan ijodiy hamkorlik kayfiyatiga o‘tiladi va guruh yanada jipslashadi. Har bir mashg‘ulot jarayonida “Aqliy hujum”, “Klaster”, “Baliq”, T” metodi va boshqa usullaridan keng foydalanish albatta o‘zining yaxshi natijalarini beradi. Kompyuter o‘yinli-trenajyorlari yordamida amalga oshirilgan mashg‘ulotlar bolalar og‘zaki va yozma nutqidagi nuqsonlarni nafaqat bartaraf etishda, balki ularning barkamol bo‘lib rivojlanishlarida quyidagi muhim ahamiyatga molik ustunliklarni taqdim etadi: kompyuter vositasida o‘tkaziladigan har bir dars korreksion ta’limning yaxlit majmuasidan iborat bo‘lsagina yaxshi samara beradi. Kompyuter dasturlari asosan ko‘rib, idrok etish omillariga bog‘liq. Bundan tashqari, natijalarni ko‘zatib borish imkonini ham beradi. Ayrim mashqlar so‘zlarni eshitib, amalga oshirishni talab etadi. Shu tariqa, markaziy asab tizimi shartli reflektorlariga ta’sir etib, vizual-kinestetik mexanizmlarni faollashtirishga imkon beradi, turli logopedik mashqlarni bajarish orqali asosiy korreksion ishlarni: fonematika, leksika va tovushlarni to‘g‘ri talaffuz etish masalalari ustida ishlash mumkin. “Multimediyali to‘g‘ri so‘zlashni o‘rganamiz” o‘yini orqali suratga qarab, turli quvnoq, yengil hikoyalar to‘zish va diqqat-e’tibor bilan tinglash orqali bolalarda tovushlarni to‘g‘ri talaffo‘z qilishga o‘rgatish mumkin. Tarbiyachi o‘zining ishida AKTdan foydalanib, bolalar og‘zaki va yozma nutqidagi kamchiliklarni bartaraf

etishda turli o‘yinli mashg‘ulot usullaridan foydalanishi mumkin. Bu ish jarayonini avtomatlashtirishi-bolalar nutqidagi turli kamchiliklarni: tovush va harflarni ifoda etish jarayonlarini, ularda interfaol ta’lim yordamida fonematik irodani to‘g‘rilash va rivojlantirish, intellektual materiallar yordamida bolalar xotirasini mustahkamlash, bilimlarni chuqurlashtirish, fikrlash jarayonlarini rivojlantirishga yordam beradi. O‘quvchilarni har jihatdan barkamol bo‘lib o‘sishiga yo‘naltirilgan, zaruratga ko‘ra va korreksiyalaydigan yangi mashqlar kiritiladi. Trenajyorda matnni idrok etish o‘quvmalakalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan materiallar –“Qayta so‘zlab berish” mashqlari va bog‘langan nutqni to‘zish malakasini shakllantirish uchun – “Suratga qarab hikoya tuzish” mashqini taqdim etish mumkin. “Qayta so‘zlab berish” mashqida tobora murakkablashib boruvchi matnlardan foydalanish zarur. Qayta so‘zlab berish uchun matnlarni tanlashda turli savol, topshiriq va tayanch so‘zlarni tayyorlash lozim. “Suratga qarab hikoya tuzish” mashqida turli janrga oid hikoyalari tuzish mumkin bo‘lgan taniqli rossomlar suratlari va manzaralaridan foydalanish yaxshi samara beradi.

Bundan xulosa qilib, shuni aytish mumkinki. noan‘anaviy mashg‘ulotlarda bolalar mustaqil faoliyat yurita oladigan, ijodkor, o‘z fikrlarini erkin bayon eta oladigan izlanuvchan bo‘lib shakllanib boradilar.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Никольская А.В. Воспитание у детей уважения к труду взрослых на основе бесед о прочитанном [Текст] / М-во просвещения Узбек. ССР. Узбек. науч.-исслед. ин-т пед. наук. - Ташкент : [б. и.], 1958. - 28 с.
2. Кодирова Ф.Р. Мактабгача ёшдаги русийзабон болаларни ўзбекча сўзлашишга ўргатиш. Т., «Ўқитувчи», 1997.; Кодирова Ф.Р. Мактабгача ёшдаги болаларни чет тилига ўргатишнинг лингводидактик муаммолари. Ж., «Педагогик таълим», 2002, №2.; Кодирова Ф.Р, Кодирова Р.М. 4.Мактабгача ёшдаги болаларга иккинчи тилни ўргатиш методикаси. Т., «Сано-Стандарт» 2004. 5. Кодирова
3. Р.М. Мактабгача ёшдаги болаларда диалогик нутқни ривожлантиришнинг психологик омиллари. Сариоғоч, 1998.;
4. Кадырова Р.М. Формирования интернациональных и патриотических чувств у дошкольников и шестилеток-учащихся в процессе обучения их русской разговорной, речи. Номзодлик диссертацияси автореферати. Т., 1990.;
5. Кадырова Р.М. Обучение детей 5-6 лет диалогической речи на русском языке в детских садах Узбекистана. Т., «Ўқитувчи», 1992.; Кадырова Р.М. Обучение детей дошкольного возраста русской разговорной речи в национальных детских садах Узбекистана. Т., «Ўқитувчи», 1992.
6. Нутқ ўстириш методикаси (теварак-атрофни ўрганиш материаллари асосида). Ўкув қўлланма. –Т.: Фан ва технология, 2009, 128 бет.

7. Тихеева Е.И. Развитие речи детей. Пособие для воспитателей детских садов. Издание 4-е. –М.: Просвещение. 1981. -144 с.; Леушина А.М. Авторитет родителей в воспитании детей. Стенограмма публичной лекции. –Л., 1952.; Рассказывание детей как средство обучения связной речи // Известия академии педагогических наук РСФСР. Выпуск 16, 1948 г.
http://elib.gnpbu.ru/text/izvestiya-apn_vyp16_1948/go,111;fs,1/

